

XORIJIY TIL TA'LIMIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Muhammadjonova O'g'iloy Bahodirjon qizi

FarDU Pedagogika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, xorijiy davlatlardagi ta'lim tizimi shuningdek, bu davlatlarda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar va texnologiyalarning qay darjada qo'llanishi hamda bu islohotlarning samarali tomonlari haqida va yurtimizda va xorijiy ta'lim tizimidagi ta'lim sifatlarining bir- biri bilan uzviy bog'liqligi haqida keng ma'lumotlar berilib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрена система образования в зарубежных странах, а также реформы, проводимые в системе образования в этих странах и степень использования технологий, и эффективные аспекты этих реформ, а также качество образования в обсуждаются системы образования нашей страны и зарубежья. Дана обширная информация об органической связи с.

Abstract: In this article, the educational system in foreign countries, as well as the reforms carried out in the education system in these countries and the extent to which technologies are used, and the effective aspects of these reforms, and the quality of education in our country and foreign education systems are discussed. extensive information is given about the organic connection with.

Kalit so'zlar: ta'lim, xorij, islohot, texnologiya, axborot, zamonaviy jamiyat.

Ключевые слова: образование, зарубежье, реформа, технологии, информация, современное общество.

Key words: education, abroad, reform, technology, information, modern society.

Kun sayin rivojlanib borayotgan mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga juda katta e'tibor berilmoqda. Yurtimizda yosh avlodga xorijiy til o'rgatish yanada kuchaytirilganini keltirishimiz mumkin. Ammo har bir ishning o'z qiyinchiligi bo'lgani kabi chet tillarini o'rganishning ham qiyinchilik tomonlari mavjud. Hozirgi kunda jahonda o'zining ulkan o'rniga ega bo'lgan hamda dunyo tillari miqyosida birinchilikni egallagan ingliz tilini o'rganishda qanday muammolarga duch kelinadi. Ingliz tilini sevuvchi va o'rganishni niyat qilgan barchaga sir emaski bizda ingliz tilining ikki shakli ya'ni (versiyasi) mavjud. Chet tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalar Shu bilan birga ingliz tili darslarida Power Point multimedia taqdimotidan foydalangan holda axborot, kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalaridan yoki loyiha faoliyatidan foydalanadigan har bir o'qituvchi bilishi

kerakki, har qanday ta'lim texnologiyasi quyidagi uslubiy talablarga javob berishi kerak: – kontseptuallik: a ilmiy kontseptsiya, shu jumladan ta'lim maqsadlariga erishishning psixologik va ijtimoiy-pedagogik asoslari; - tizimli: tizimning barcha belgilarining mavjudligi (jarayon mantig'i, uning barcha qismlarining o'zaro bog'liqligi, yaxlitligi ham zarurdir.¹

Bugungi kunda butun dunyoda informatsion texnologiyalar keng ko'lamda rivojlanmoqda. Shubhasiz, ta'lim jarayonini samarali va sifatli tashkil etishda yangi innovatsion texnologiyalardan maqsadli foydalanishni yo'lga qo'yish ahamiyatli. Zamonaviy jamiyat axborot uzatish hajmi va tezligi jihatidan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan harakterlanadi. Bugungi kunda barcha sohalar kabi o'quv jarayonini ham kompyuter va axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Hozirgi vaqtda o'quvchilarni dars davomida diqqatini bir joyga qaratish va samarali ta'lim berish texnologiyalari muhim amaliy masalalardan biridir.

So'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitishda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash savol miqiyosida ko'tarildi. xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or usullarini joriy etish orqali yosh avlodga chet tillarini o'rgatish, shu asosda ularning jahon sivilizatsiyasidagi yutuqlari va jahon axborot resurslaridan kengroq foydalanish, muloqotni rivojlantirish, va ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari bugungi kun chet tili o'qituvchisining dolzarb vazifalaridan biridir. Chet tili o'qitish asosiy maqsadi chet tilida amaliy mahoratini o'rganish, talabalar kommunikativ madaniyat shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy tilda so'z o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu faqat so'zni eslash va to'g'ri talaffuz qilish bilan birga qayerda va qanday qo'llashni bilish kerakligi haqida ham fikr yuritiladi. Chet tilini o'qitish metodikasi, Professor M.V.Lyaxoitskiy ta'riflashicha, ta'lim maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet tili yordamida ta'lim – tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi fan hisoblanadi. Boshqacha aytganda, metodika chet tili o'rgatish ilmi bo'lib, chet tilini o'quv predmeti sifatida belgilaydi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'rgatish va boshqa fanlarni yutuqlarini o'zlashtiradi va o'z qonuniyatlarini ishlab chiqish yo'llarini tadqiq etadi. Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi asoschisi akademik L.V.Sherbadir. shuningdek bu soxada I.²V.Raxmanov, A.A.Mirol'yubov, V.S.Setlin, V.D.Arakin, S.F.Shatilov, N.I.Gez, G.V.Rogiva, I.A.Bim va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etildi. Yurtimizda xorijiy tillarni o'rganishga qiziqish tobora ortib borayotganini e'tiborga olib, chet tili o'qituvchilarining kasbiy malaka va mahoratini oshirish maqsadida 2015-yildan buyon Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda ingliz tili o'qituvchilari uchun noan'anaviy tarzda "Yilning eng yaxshi chet tili o'qituvchisi"

¹ <file:///C:/Users/user/Downloads/+77.pdf>

² [file:///C:/Users/user/Downloads/document%20\(3\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/document%20(3).pdf)

ko'riktanlovi o'tkazib kelinmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 4-iyuldagi 421-sonli farmoyishi asosida 1-, 2-, 3-sinf chet tili darsliklarining mantiqiy davomi sifatida mualliflar guruhi tomonidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi asosida 4-sinf chet (ingliz, nemis va fransuz) tili darslik majmualari (darslik, mashq daftari, o'qituvchi metodik qo'llanmasi va multimediali ilova) yaratildi. Xorijiy til ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni rivojlanishi har qanday murakkab ish hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish ham muhim o'rin tutadi. Xorijiy til ta'lim texnologiyalari bilan yurtimizdagi ta'lim tizimidagi innovatsion texnologiyalarni nazarga olsak, jumladan ta'lim tizimidagi juda ko'p texnologiyalar bir-biridan farq qiladi. Darhaqiqat, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning, mamlakat ichki siyosatiga faol tasir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli xam xorijiy mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag'lar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Yaponlarda, masalan, "maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli"gina bo'lib qolmay, "u insonlarni yaxshilaydi", degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan. Yurtimizdagi va chet el maamlakatlaridagi ta'lim tizimi bir- biri bilan solishtiriish ham mumkun. Masalan, Koreya davlatlarining ta'lim tizimini e'tiborga olsak ulardan bir nechta yangiliklarni o'rganishimiz mumkin. Koreyada davlat tasarrufidagi boshlang'ich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud. Bu maktablarning o'quv dasturlari davlat maktablari o'quv dasturlariga birmuncha mos keladi, lekin o'qitish yuqori darajada amalga oshiriladi. Masalan, kam sonli o'quvchilarga ko'p o'qituvchilarning jalb etilishi, qo'shimcha fanlarning kiritilishi, umuman ta'limning yuqori standartlarga egaligi va h.k. Shu bois ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini xususiy maktabga berishga intiladilar. Lekin bunday maktablarda o'qish narxining balandligi ota-onalarni o'ylantirib qo'yadi. Boshlang'ich maktabni bitirgan o'quvchilar keyingi bosqichlarga imtixonsiz o'tadilar. Janubiy Koreyada sinflarni raqamlash odatdagiday pastdan yuqoriga emas, balki har bir ta'lim bosqichida 1 dan boshlanadi. Masalan, boshlang'ich maktab 1 dan 6 gacha, o'rta maktab (3 yil) 1 dan 3 gacha, sanaladi: boshlang'ich maktabning 1-sinfi (2,3,4,5,6-sinfi), o'rta maktabning 1-sinfi (ya'ni, o'zbek maktablaridagi 7-sinf), oliy maktabning 2-sinfi (ya'ni o'zbek akademik litsey va kasb-hunar kollejining 2-kurs talabasi) kabi. Janubiy Koreyada oliy ma'lumotga ega bo'lish har bir koreys fuqarosining keyingi mavqei muvaffaqiyati uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham martabali ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga bo'lgan ehtiyoj ham katta. Janubiy Koreyada e'tibor ko'proq matematika, koreys tili va ingliz tillariga, aniq fanlarga va jamiyat bilan bog'liq fanlarga qaratiladi. ³

Janubiy Koreaning ta'lim bosqichlari

№	Bosqichlari	O'qish davomiyligi	Majburiyligi
1	Boshlang'ich maktab	6 yil	Majburiy
2	O'rta maktab	3 yil	Majburiy
3	Yuqori maktab	3 yil	Majburiy emas
4	Kasbiy ta'lim	2 yil	Majburiy emas
5	Oliy ta'lim	4 yil	Majburiy emas

Yurtimizda amalga oshirilgan ta'lim tizimining o'ziga xos ko'rinishi mavjud. Ularning bir nechta turlari va bosqichlari ham mavjuddir. Jumladan, ularni bir sanab o'tsak ham bo'ladi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga birlashtirilishi bo'ldi. Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir. Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilmfanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda.

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;

- oliy ta'limdan keying ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim tizimida amalga oshirilgan bunday islohotlar natijasida ta'lim tizimida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Chet el ta'lim tizimidan foydalangan holda islohotlar olib borish bizning yoshlarimiz uchun yaratilib berilayotgan katta imkoniyatlardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xasanova M., Ubaydullayev S. Communicative language teaching and learning //boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – т. 2. – №. 1. – с. 125-128.
2. Madina X. Zamonaviy Ta'lim muhitida ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishning ingliz tilini o'qitish samaradorligini ta'minlash asoslari //boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – т. – №. 3. – с. 27-30.
3. Xasanova M., Usmonova M. Techniques, tools and organizational forms of developing educational strategies //conferencea. – 2023. – с. 22-24.
4. Avazjon o'g'li, V. D., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). Use and Importance of ThreeDimensional Images in Fields. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(2), 1-4.
5. Khasanova, G. K. (2021). MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND PROFESSIONAL TRAINING IN THE WORLD. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 257-262.
3. Jalolov J.J. Chet tillarini o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi. 2012
6. Jamalovna J. D. et al. Ways to effectively use marketing strategies to increase the customer satisfaction of physical education and sports services //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №.
7. – С. 2930-2938.
2. Аббосов Б. А. Этапы и стадии технической подготовки спортсменов //Стратегии и тренды развития науки в современных условиях. – 2019. – №. 1. – С. 20-22.
8. Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Maxamadjonov, J. Z. O. (2021). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. *Science and Education*, 2(11), 985-991.
9. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogik kompetentlikning: nazariy va amaliy tahlili. *Science and Education*, 2(9), 309-314.
10. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O'ZLASHTIRISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 535-542.
11. Yusufovich, A. A., & O'G'Li, E. O. A. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI

- TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. *Science and innovation*, 1(B3), 40-46.
12. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O 'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI. *Journal of new century innovations*, 14(3), 33-36.
 13. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Journal of new century innovations*, 4(1), 52-59.
 14. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOYIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, 18(1), 220-225.
 15. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(7).
 16. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.
 17. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.
 18. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 162-165.
 19. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 166-169.
 20. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 158-161.
 21. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.